

**MEDICINE
PROBLEMS**

.uz

ISSN 3030-3133

**TIBBIYOT FANLARINING
DOLZARB MASALALARI**

**TOPICAL ISSUES OF MEDICAL
SCIENCES**



N° 3 (4)

2026



САЙТ: <https://medicineproblems.uz>
ISSN: 3030-3133

MEDICINEPROBLEMS.UZ
TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI

№ 3 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2026

BOSH MUHARRIR:

ISANOVA SHOIRA TULQINOVNA- Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TAHRIR HAY'ATI:

TIBBIYOT FANLARI

Safarov Zafar Fayzullayevich –tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xakimov Murod Shavkatovich –tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Mavlanov Alimbay – tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ergashev Nasriddin Shamsiddinovich - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent pediatriya instituti;

Abdullayeva Nargiza Nurmatovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Djurabekova Aziza Taxirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Xaydarova Dildora Kadirovna - tibbiyot fanlari doktori, professor, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Ruziboyev Sanjar Abdusalomovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Sattarov Oybek Toxirovich- tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Niyozov Shuxrat Tashmirovich - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Shomurodova Dilnoza Salimovna - tibbiyot fanlari doktori, dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Tavasharov Bahodir Nazarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Xalmetova Feruza Iskandarovna – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

G'aybiyev Akmaljon Axmadjonovich - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Qo'ziyev Otabek Juraqulovich – tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Ergasheva Munisa Yakubovna - tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Ollanova Shaxnoza Sirlibayevna – tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti;

Safarov Zafar Fayzullayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti;

Xayitov Ilxom Bahodirovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Alimov Suxrob Usmonovich- tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Fozilov Uktam Abdurazzokovich - tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Raximov Oybek Umarovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent pediatriya instituti;

Sattarov Inayat Saparbayevich – tibbiyot fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi;

Abidov O'tkir O'ktamovich – tibbiyot fanlari nomzodi, Buxoro davlat tibbiyot instituti;

Amonova Zaxro Qaxramon qizi - tibbiyot fanlari nomzodi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

FARMATSEVIKA FANLARI

Zulfikariyeva Dilnoza Alisherovna - farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor, Toshkent farmatsevtika instituti;

Toshpo‘latova Azizaxon Dilshodovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), professor,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Xusainova Rayxona Ashrafovna -
farmatsevtika fanlari doktori (DSc), dotsent,
Toshkent farmatsevtika instituti;

Maksudova Firuza Xurshidovna farmatsevtika
fanlari doktori (DSc), dotsent, Toshkent
farmatsevtika instituti;

Ziyamuxamedova Munojot Mirgiasovna -
farmatsevtika fanlari doktori, Toshkent
farmatsevtika instituti, dotsent v.b.;

Rizayeva Nilufar Muxutdinovna –
farmatsevtika fanlari nomzodi, dotsent
Toshkent farmatsevtika instituti;

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB

MASALALARI elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB MASALALARI
4-jild, 3- son (Aprel, 2026). – 35 bet.

MUNDARIJA

Pirnazarova Gulchehra

BOLADA SURUNKALI YALLIG'LANISHLI VA EHTIMOLIY AUTOIMMUN JARAYONLARNI RIVOJLANISHI FONIDA, SEPSIS VA POLIORGAN YETISHMOVCHILIGI BILAN ASORATLANGAN OG'IR PNEVMONIYANING LETAL YAKUNI (klinik holat va adabiyotlar sharhi) 5-8

Artikova Dilfuza

QANDLI DIABET 2-TURI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA DIABETIK TO'PIQ SINDROMINING ISHEMIK SHAKLINI TOPIK DIAGNOSTIKA QILISH XUSUSIYATLARI 9-14

Norboev Xolmamat, Xudoyqulov Jonibek

KARANTIN VA O'TA XAVFLI YUQUMLI KASALLIKLAR BILAN ISHLASHDA KIYILADIGAN MAXSUS SHAXSIY HIMOYA KIYIMLARGA QO'YILADIGAN TALABLAR 15-20

Sultonova Gulrukh, Saloni Sajid

INTEGRATING CLINICAL REASONING AND PREDICTIVE MODELLING IN ADULT FEBRILE ILLNESS: A CASE REPORT 21-27

Matnazarova Gulbahor, Saidkasimova Nargiza, Jumaniyozova Maxfira

XORAZM VILOYATIDA 2014–2024-YILLARDA Salmonella enteritidis Keltirib chiqargan salmonellyoz kasalligining hududlar bo'yicha taqsimlanishi 28-34

Article / Original Paper

XORAZM VILOYATIDA 2014–2024-YILLARDA *Salmonella* enteritidis KELITIRIB CHIQARGAN SALMONELLYOZ KASALLIGINING HUDUDLAR BO'YICHA TAQSIMLANISHI

Matnazarova Gulbahor Sultonovna

Tibbiyot fanlari doktori,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti professori
E-mail: gulbaxor.matnazarova@tma.uz
Tel: +998 97 343 23 09

Saidkasimova Nargiza Sayfullaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti dotsenti
E-mail: saidkosimova@inbox.ru
Tel: +998909290559
ORCID 0000-0003-3218-357X

Jumaniyozova Maxfira Qahramon Qizi

TDTU Epidemiologiya kafedrasi magistranti
E-mail: jumaniyozova.m.95.com@gmail.com
Tel: +998 91 437 44 37

Annotatsiya. Mazkur maqolada salmonellyozlarning, xususan, *Salmonella* enteritidis bilan bog'liq infeksiyalarning zamonaviy epidemiologik xususiyatlari Xorazm viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda 2014–2024 yillar davomida qayd etilgan rasmiy statistik ma'lumotlar, bakteriologik laboratoriya natijalari hamda epidemik o'choqlarni tekshirish materiallari asosida retrospektiv epidemiologik va statistik usullar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, salmonellyozlar bilan kasallanish ko'rsatkichlari vaqt bo'yicha notekis o'zgarib, to'rtta epidemiologik davr shakllangan: dastlabki yillarda nisbatan yuqori daraja, keyingi davrda pasayish, pandemiya yillarida minimal ko'rsatkich hamda so'nggi yillarda qayta o'sish kuzatilgan. Hududiy tahlil esa kasallanishning asosan urbanizatsiyalashgan hududlarda, ayniqsa Urganch shahrida yuqori ekanligini, qishloq hududlarida esa nisbatan past darajada ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, salmonellyozlarning tarqalishida oziq-ovqat omili, parrandachilikning rivojlanishi, sanitariya-gigiyena sharoitlari hamda savdogarlik tizimi muhim rol o'ynaydi. Profilaktika choralarini takomillashtirishda oziq-ovqat xavfsizligi nazoratini kuchaytirish, veterinariya tadbirlarini kengaytirish, laborator diagnostikani rivojlantirish hamda aholi o'rtasida sanitariya-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish zarurligi asoslab berildi.

Kalit so'zlar: salmonellyoz, *Salmonella* enteritidis, epidemik jarayon, hududiy taqsimlanish, oziq-ovqat omili, Xorazm viloyati

TERRITORIAL DISTRIBUTION OF SALMONELLOSIS CAUSED BY *SALMONELLA* ENTERITIDIS IN THE KHOREZM REGION (2014–2024)

Matnazarova Gulbakhor Sultanovna

Doctor of Medical Sciences, Professor

Saidkasimova Nargiza Sayfullaevna

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

Jumaniyazova Mahfira Kakhramon Kizi

Master's Student of the Department of Epidemiology

Annotation. This article analyzes the modern epidemiological features of salmonellosis, particularly infections caused by *Salmonella enteritidis*, using the example of the Khorezm region. The study employed retrospective epidemiological and statistical methods based on official statistical data from 2014 to 2024, results of bacteriological laboratory studies, as well as materials from investigations of epidemic outbreaks. The results showed that the incidence rates of salmonellosis changed unevenly over time, forming four epidemiological periods: a relatively high level in the initial years, a subsequent decline, minimal indicators during the pandemic years, and a renewed increase in recent years. Territorial analysis revealed that the incidence is predominantly higher in urbanized areas, especially in the city of Urgench, while in rural areas it remains at a relatively lower level. According to the findings, the spread of salmonellosis is significantly influenced by food-related factors, the development of poultry farming, sanitary and hygienic conditions, and the trade and logistics system. The need to improve preventive measures has been substantiated, including strengthening food safety control, expanding veterinary interventions, developing laboratory diagnostics, and enhancing public health education among the population.

Keywords: salmonellosis, *Salmonella enteritidis*, epidemic process, territorial distribution, food factor, Khorezm region.

DOI: <https://doi.org/10.47390/Med-pro/v4i3y2026/N05>

Kirish Salmonellyozlar bugungi kunda dunyo aholisining salomatligiga jiddiy tahdid solayotgan keng tarqalgan zoonoz va oziq-ovqat orqali yuqadigan infeksiyalardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va ko'plab epidemiologik tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, no-tifoid salmonellalar, jumladan *Salmonella enteritidis*, global miqyosda oziq-ovqat bilan bog'liq o'tkir ichak infeksiyalarining asosiy sababchilaridan biridir [6; 18.]. Hozirgi vaqtda turli davlatlarda salmonellyoz kasalligi bilan kasallangan bemorlar soni uzluksiz ortmoqda [17; 18.].

O'zbekiston Respublikasida salmonellyozlar bilan kasallanish darajasi mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lib, so'nggi yillarda *S. enteritidis* ulushining ortib borishi kuzatilmoqda. Respublika miqyosida olib borilgan tadqiqotlarda salmonellyozlar orasida ushbu serovarning ustunligi qayd etilgan [10; 15.].


Xususan, Xorazm viloyati va Janubiy Orolbo'yi hududlarida epidemiologik vaziyatning murakkabligi ekologik omillar, parrandachilikning jadal rivojlanishi va oziq-ovqat nazoratining yetarli darajada yo'lga qo'yilmagani bilan izohlanadi [1; 5.].

Hozirgi vaqtda parrandachilik sanoati O'zbekistonda yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda [4; 9.]. Bu o'z navbatida ko'pgina zoonoz kasalliklar bilan kasallanishni keltirib chiqaradi. Zoonoz kasalliklardan parrandalar salmonellyozi - ko'pgina qishloq xo'jalik va yovvoyi parrandalarning infeksiyon kasalligi bo'lib, yosh organizmda oshqozon-ichak, nafas olish tizimi a'zolarining zararlanishi va septisemiya bilan, voyaga yetgan parrandalarda esa tuxum yetishtiruvchi a'zolarining kasallanishi, klinik belgisiz yoki surunkali kechish bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari, ushbu kasallik qo'zg'atuvchisi - salmonellalar odamlarda oziq-ovqat orqali zaharlanishni keltirib chiqaradi. Ko'pgina davlatlarda, shu jumladan O'zbekistonda ham, parrandachilik va qishloq xo'jaligi hayvonlarida ham salmonellyoz kasalligi keng tarqalgan [16.].

Tadqiqot maqsadi. *Salmonella enteritidis* keltirib chiqargan salmonellyozlarning zamonaviy epidemiologik xususiyatlarini baholash va profilaktika choralarini takomillashtirish.


Tekshiruv usullari va materiallari. Tadqiqot vazifalarini hal etish va maqsadga erishish uchun epidemiologik (retrospektiv) va statistik usullar (Pirsonning χ^2 testi va Fisher usuli) usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot o'tkazish uchun tadqiqot ob'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Xorazm viloyati va Urganch shahar bo'limlarining 2014-2024 yillardagi salmonellyozlar haqidagi rasmiy ma'lumotlari, hisobotlari, bakteriologik laboratoriyalardan, odamlardan va tashqi muhit ob'ektlaridan 2014-2024 yillarda ajratilgan salmonellalar haqidagi ma'lumotlar. 40 ta epidemik o'choqlarida o'tkazilgan epidemiologik tekshiruv xaritalari natijalari olindi.

Olingan natijalar. Salmonella enteritidis hozirgi vaqtda salmonellyozlar tarkibida yetakchilik qilayotganini inobatga olib, salmonellyoz kasalligi epidemik jarayonining Xorazm viloyatida namoyon bo'lishini (2014-2024 yillar) davrida tahlil qildik (1-rasm). 2014-2024 yillar ma'lumotlariga tayanib ko'p yillik dinamikani tahlil qilganimizda, kasallanish ko'rsatkichlari bir xil emas, balki bir-biridan farq qiluvchi to'rtta epidemiologik davr shakllanganini ko'rishimiz mumkin. 1-davr: 2014-2015 y.y. Bu davrda kasallanish nisbatan yuqori darajada saqlangan: absolyut ko'rsatkich 26 dan 21 ta holatga tushgan, intensiv ko'rsatkich esa 1,5 dan 1,2 gacha pasaygan. Ya'ni, sekin pasayish tendensiyasi kuzatiladi. 2-davr: 2016-2019 y.y. Ushbu bosqichda barqaror va yaqqol kamayish qayd etilgan. 2016 yilda 8 ta (0,5), 2017-2018 yillarda 10 tadan (0,6-0,5), 2019 yilga kelib esa 5 ta holat (0,3) gacha tushgan. Bu davr epidemiologik jihatdan eng nisbiy barqarorlashgan va past darajaga tushgan bosqich hisoblanadi. 3-davr: 2020-2021 y.y. Bu yillarda kasallanish deyarli uchramaydi: 2020 yilda 0 holat, 2021 yilda esa atigi 1 holat qayd etilgan (intensiv ko'rsatkich amalda 0). Bu minimal daraja davri bo'lib, epidemiologik jarayonning vaqtinchalik susayganini ko'rsatadi. 4-davr: 2022-2024 y.y. So'nggi bosqichda keskin o'sish kuzatiladi: 2022 yilda 26 holat (1,3), 2023 yilda 23 holat (1,2), 2024 yilda 24 holat (1,2). Bu ko'rsatkichlar avvalgi past davr bilan solishtirganda ancha yuqori bo'lib, qayta faollashish (residiv dinamika) holatini ifodalaydi. Xulosa qiladigan bo'lsak, Ko'p yillik dinamikada: 2014-2019 yillarda umumiy pasayish tendensiyasi, 2020-2021 yillarda eng past daraja, 2022 yildan boshlab esa qayta o'sish kuzatiladi. Bu holat epidemik jarayonda davriylik va tashqi omillar ta'sirida kasallanish ko'rsatkichlari o'zgarib turishini ko'rsatadi. Ayniqsa 2022 yildan keyingi o'sish oldingi statistik pasayish fonida yangi xavf bosqichi shakllanganligini ko'rsatadi.



1-rasm. Salmonella enteritidis bilan keltirib chiqargan salmonellyoz bilan kasallanishning ko'p yillik dinamikasi (2014–2024).

Salmonellyozlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishini tahlil qilganimizda, kasallanish ko'rsatkichlarining respublika hududlari kesimida notekis tarqalganligi aniqlandi (2-rasm). Hududlar o'rtasidagi farq epidemik jarayon intensivligining turlicha ekanligini ko'rsatadi. Kasallanishning hududlar kesimidagi taqsimlanishini tahlil qilish natijasida epidemiologik jarayonning notekis hududiy tarqalishi aniqlandi. Olingan ma'lumotlar ayrim ma'muriy birliklar kasallanish bo'yicha yuqori xavf hududlari sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Eng yuqori intensiv ko'rsatkich Urganch shahrida qayd etilib, **1,9** ni tashkil etgan. Mazkur ko'rsatkich boshqa hududlarga nisbatan keskin yuqori bo'lib, shahar sharoitida aholi zichligi, oziq-ovqat aylanishi hajmining katta bo'lishi hamda jamoat ovqatlanish obyektlarining ko'pligi bilan izohlanadi. Bu hudud epidemiologik jarayonning asosiy markazi sifatida namoyon bo'ladi. Yuqori ko'rsatkichlar guruhiga, shuningdek, Yangiariq tumani (**1,6**) kiradi. Ushbu hududda ko'rsatkichning yuqoriligi qishloq xo'jaligi mahsulotlari aylanishi, suv omillari va maishiy gigiyena sharoitlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. O'rtacha intensivlik darajasi quyidagi hududlarda kuzatilgan: Urganch tumani (0,9), Qo'shko'pir tumani (0,8), Hazorasp tumani (0,8), Shovot tumani (0,8), Xiva tumani (0,7)ni tashkil etgan. Bu hududlarda epidemiologik jarayon faol, biroq keskin emas. Asosiy yuqish omili sifatida oziq-ovqat mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan taomlar gigiyenasi yetarli darajada nazorat qilinmasligi ehtimol qilinadi. Past intensivlik darajasi quyidagi hududlarda qayd etilgan: Pitnak shahri (0,4), Bog'ot tumani (0,3), Gurlan tumani (0,3), Xonqa tumani (0,2) ni tashkil etgan. Mazkur hududlarda kasallanish ko'rsatkichlari past bo'lsa-da, infeksiyaning sirkulyatsiyasi to'liq to'xtamaganligi kuzatiladi.



2-rasm. Xorazm viloyatida salmonellyoz bilan kasallanishning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2014-2024 y.y.) 100 ming aholiga nisbatan

Umumiy xulosa, hududiy differensial tahlil shuni ko'rsatadiki, epidemiologik yuk asosan urbanizatsiyalashgan markaz — Urganch shahri hamda unga tutash hududlar hissasiga to'g'ri keladi. Shahar atrofi tumanlari o'rta xavf zonasi, chekka va kam aholi zich hududlar esa nisbatan past xavf zonasi sifatida shakllangan. Ushbu holat salmonellyozlar uchun xos bo'lgan oziq-ovqat orqali yuqish mexanizmi va savdo-logistika zanjiri bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. O'tkazilgan retrospektiv epidemiologik tahlil natijalariga ko'ra, 2014–2024 yillar davomida Xorazm viloyatida *Salmonella enteritidis* keltirib chiqargan salmonellyozlarning epidemik jarayoni vaqt bo'yicha o'zgaruvchan va hududlar kesimida notekis tarqalganligi aniqlandi. Ko'p yillik dinamikani tahlil qilish natijasida kasallanish ko'rsatkichlarida to'rtta asosiy epidemiologik bosqich shakllanganligi kuzatildi: 2014–2015 yillarda nisbatan yuqori darajadagi kasallanish, 2016–2019 yillarda barqaror pasayish, 2020–2021 yillarda minimal daraja hamda 2022–2024 yillarda kasallanish ko'rsatkichlarining qayta ortishi bilan tavsiflangan davr. Mazkur holat epidemik jarayonning davriyligi va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ekologik omillar ta'sirida shakllanishini ko'rsatadi.

Hududiy tahlil natijalari salmonellyozlarning epidemiologik yuklamasi asosan urbanizatsiyalashgan hududlarga to'g'ri kelishini ko'rsatdi. Ayniqsa, Urganch shahrida kasallanish ko'rsatkichining yuqoriligi aholi zichligi, oziq-ovqat mahsulotlari aylanishining katta hajmi hamda jamoat ovqatlanish tarmoqlarining keng rivojlanganligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shahar atrofi tumanlarida o'rtacha darajadagi kasallanish qayd etilgan bo'lsa, ayrim chekka hududlarda past intensivlik darajasi kuzatilgan. Bu holat salmonellyozlar uchun xos bo'lgan oziq-ovqat orqali yuqish mexanizmi hamda savdo-logistika zanjirining epidemiologik jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari asosida salmonellyozlarning profilaktikasini takomillashtirishda kompleks epidemiologik yondashuv muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Umumiy profilaktika choralari oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va realizatsiya qilish bosqichlarida sanitariya-gigiyena talablariga qat'iy rioya etish, parrandachilik

xo'jaliklarida veterinariya nazoratini kuchaytirish, oziq-ovqat xavfsizligi monitoringini tizimli ravishda olib borish hamda aholi o'rtasida sanitariya-ma'rifiy ishlarni kengaytirish kiradi.

Shu bilan birga, maxsus profilaktika choralarini takomillashtirish salmonellyozlar epidemik jarayonini barqaror nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda odamlar uchun keng qo'llaniladigan universal vaksina mavjud bo'lmaganligi sababli infeksiya manbaini kamaytirishga qaratilgan veterinariya-profilaktik tadbirlar ustuvor hisoblanadi. Xususan, parrandachilik xo'jaliklarida Salmonella enteritidis ga qarshi vaksinalardan foydalanish, inkubatsiya xo'jaliklarida bakteriologik nazoratni kuchaytirish, infeksiya aniqlangan o'choqlarda veterinariya-sanitariya choralarini o'z vaqtida amalga oshirish hamda epizootik monitoringni takomillashtirish orqali infeksiyaning hayvonlardan odamga yuqish xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Bundan tashqari, epidemiologik nazorat tizimida laborator diagnostika imkoniyatlarini kengaytirish, oziq-ovqat mahsulotlari va tashqi muhit ob'ektlarining mikrobiologik monitoringini kuchaytirish, epidemik o'choqlarni erta aniqlash va ularni kompleks tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Mazkur choralar kompleks ravishda amalga oshirilganda salmonellyozlarning tarqalishini kamaytirish va hududda barqaror epidemiologik vaziyatni ta'minlash mumkin.

Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqot natijalari Xorazm viloyatida Salmonella enteritidis bilan bog'liq salmonellyozlarning zamonaviy epidemiologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularning profilaktikasini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi va ushbu yo'nalishda kelgusidagi epidemiologik monitoring hamda profilaktik tadbirlarni rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Адабиётлар/Литература/References

1. Абдухалилова Г. К. и др. Энтеропатогены, выделенные у больных с острыми кишечными инфекциями в Хорезмской области // Журнал теоретической и клинической медицины. – 2015. – № 5. – С. 113–119.
2. Mirtazayev, O. M., Briko, N. I., Matnazarova, G. S., Saidkasimova, N. S., Toshboev, B. Y., & Khamzaeva, N. T. (2019). Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in Uzbekistan. Central Asian Journal of Medicine, 4, 72-80.
3. Миртазаев, О. М., & Саидкасимова, Н. С. (2016). Современные аспекты эпидемиологии сальмонеллёзов в республике Узбекистан. Инфекция, Иммунология, Фармакология, 7, 103-106.
4. Tajibayeva, D. A., Saidkasimova, N. S., & Xamzayeva, N. T. (2025). O'tkir yuqumli ichak infeksiyalari epidemiologik xususiyatlari va ularning epidemiologik nazoratini takomillashtirish (qoraqolpog'iston respublikasi misolida).
5. Saidkasimova, N. S., Matnazarova, G. S., & Mirtazayev, O. M. (2018). Some epidemiological patterns of salmonellosis in Uzbekistan. Biology and Medical problems, 4, 95-96.
6. Худойкулов, Ж. Б., Абдукахарова, М. Ф., & Матназарова, Г. С. (2018). Факторы риска злокачественных новообразований и их профилактика. Интернаука, (44-1), 43-45.
7. Sattarova, N. A., Mirtazayev, O. M., & Saidkasimova, N. S. (2009). Modern problems of epidemiological process of Salmonellosis in Uzbekistan. Вестник Санкт-Петербургской государственной медицинской академии им. ИИ Мечникова, (2), 193-194.
8. Неъматова, Н. У. (2026). Особенности эпидемиологии внутри больничной вич инфекции в городе ташкенте.

9. Saidkasimova, N. S., & Mirtazaev, O. M. (2020). Epidemic Process of Salmonellosis in Tashkent. *Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology*, 14(4).
10. Xudoyqulov Jonibek Bozorovich, M. G. S. (2025). QASHQADARYO VILOYATIDA QIZAMIQ KASALLIGI NING EPIDEMIOLOGIK TAHLILI.
11. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., & Магзумов, Х. Б. (2023). Зоонозный сальмонеллёз-болезнь цивилизации. микробиологиянинг долзарб муаммолари» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани, 132.
12. Sattarova, N. A., Mirtazaev, O. M., & Saidkasimova, N. S. (2009). Modern problems of epidemiological process of Salmonellosis in Uzbekistan. *Вестник Санкт-Петербургской государственной медицинской академии им. ИИ Мечникова*, (2), 193-194.
13. Саидкасимова, Н., & Миртазаев, О. (2021). Ўзбекистонда сальмонеллёзларнинг эпизоотологик ва эпидемиологик назоратини такомиллаштириш.
14. NS, X.J. A. (2025). Neft va gaz ishlab chiqarish sohasida ishlovchi xodimlarning sog'lig'iga ta'sir etuvchi epidemiologik xavf omillar va ularni oldini olish (doctoral dissertation, o'zbekiston).
15. Саттарова, Н. А., Миртазаев, О. М., Камилов, Д. Ю., Аглиулина, С., & Якубова, Ф. (2011). Характеристика эпидемического процесса сальмонеллезов в г. Ташкенте. Ташкент. *Вестник ТМА*, 2, 102-104.
16. Саидкасимова, Н. С., Миртазаев, О. М., & Миртазаева, Н. А. (2020). Социальные факторы, влияющие на заболеваемость сальмонеллезами в Узбекистане. In *Школа эпидемиологов: теоретические и прикладные аспекты эпидемиологии* (pp. 63-65).
17. Saidkasimova, N. S., Jumaniyazova, M. K., & Xamzayeva, N. T. (2024). SALMONELLYOZLAR EPIZOOTIK JARAYONINING NAMOYON VO 'LISHI.
18. Миртазаев, О. М., Матназарова, Г. С., Саидкасимова, Н. С., & Магзумов, Х. Б. (2022). Сальмонеллёзларга қарши курашиш ва унинг олдини олиш бўйича чора тадбирлар тизимини назарий асослаш. *Международная научно-практическая конференция "Актуальные проблемы инфектологии, эпидемиологии и паразитологии"*.

**MEDICINEPROBLEMS.UZ-
TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI**

№ 3 (4)-2026

TOPICAL ISSUES OF MEDICAL SCIENCES

**TIBBIYOT FANLARINING DOLZARB
MASALALARI** elektron jurnali 02.03.2023-
yilda 132099-sonli guvohnoma bilan
davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.
Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com